“O‘zbekiston respublika valyuta birjasi”
aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlari diqqatiga !

Jamiyatning nomi:	“O‘zbekiston respublika valyuta birjasi” aksiyadorlik jamiyati (O‘zRVB).
Joylashgan yeri (pochta manzili):	Toshkent shahri, Sh.Rashidov ko‘chasi, 4-uy.
Elektron pochta manzili:	info@uzrvb.uz
Rasmiy veb-sayt:	www.uzrvb.uz

O‘zRVB aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishi **2026-yil 29-iyun kuni soat 15-00 da,** o‘zi kelgan holda O‘zRVBning ma’muriy binosida (Toshkent shahri, Sh.Rashidov ko‘chasi, 4-uy) yoki videokonferensaloqa rejimida “ZOOM” platformasida o‘tkaziladi.

Aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishi o‘tkazilishi haqida xabar qilish uchun aksiyadorlarning reyestri shakllantiriladigan sana: **2026-yil 8-iyun.**

Aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishiga qatnashish huquqiga ega aksiyadorlarning reestri shakllantiriladigan sana: **2026-yil 23-iyun.**

Aksiyadorlar **2025-yil 29-iyun kuni soat 14-00 dan 14-40 gacha** ro‘yxatga olinadi.

AKSIYADORLARNING YILLIK UMUMIY YIG‘ILISHI
KUN TARTIBI:

1. Aksiyadorlar yillik umumiy yig‘ilishi reglamentini tasdiqlash.
2. O‘zRVB sanoq komissiyasi a’zolarining soni va shaxsiy tarkibini tasdiqlash.
3. O‘zRVB Kuzatuv kengashining **2025-yildagi** faoliyati yakunlari bo‘yicha (shu jumladan, O‘zRVB strategiyasiga erishish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar to‘g‘risidagi) hisobotini eshitish.
4. O‘zRVB tomonidan xayriya (homiylik) va boshqa xolis ko‘mak ko‘rsatilishining yuqori chegarasini belgilash.
5. O‘zRVB korporativ boshqaruv tizimini mustaqil baholash natijalarini ko‘rib chiqish.
6. O‘zRVBning **2025-yil** uchun yillik hisobotini tasdiqlash.
7. O‘zRVBning **2025-yil** yakunlariga ko‘ra sof foydasini taqsimlash.
8. O‘zRVBda **2026-yil** uchun majburiy auditorlik tekshiruvini o‘tkazish uchun auditorlik tashkilotini belgilash, ushbu tashkilotning xizmatlariga to‘lanadigan eng ko‘p haq miqdorini aniqlash va u bilan shartnoma tuzish to‘g‘risida qaror qabul qilish.
9. O‘zRVB affillangan shaxslari bilan tuzilishi kutilayotgan joriy xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq bitimlarni tasdiqlash.

Shuningdek, O‘zRVB aksiyadorlariga taqdim etilishi lozim bo‘lgan axborot (materiallar) aksiyadorlarga ularning elektron pochtalari orqali bildirishnoma (xat) bilan yuboriladi.

Qo‘shimcha ma’lumot olish uchun: +998 55 501-33-02

Rasmiy veb-sayt: www.uzrvb.uz

Elektron pochta manzili info@uzrvb.uz

O‘zRVB Kuzatuv Kengashi.